

5-Aprel, 2025-yil

## MAQOLLAR – XALQ DONISHMANDLIGINING DURDONALARI (O’ZBEK VA RUS MAQOLLARINING TAQQOSLAMALI TAHLILI ASOSIDA)

**Farmonova Nazirabegim Sadriddinovna**

*Osiyo xalqaro universiteti*

*3-FT (o')-24 guruh talabasi*

*O’qituvchisi D.O.Bobojonova*

**Annotatsiya:** *Xalq og‘zaki ijodi – bu xalqning asrlar davomida to‘plagan tajribasi, dunyoqarashi, orzu-umidlari, hayotiy qarashlarini ifoda etuvchi beba ho boylikdir. Ushbu ijod namunalarining eng ommabop va teran ma’noli shakllaridan biri bu – maqollardir. Maqollar xalqning fikrlash tarzini, axloqiy-me’yoriy qadriyatlarini, ijtimoiy hayot haqidagi qarashlarini ixcham va obrazli ifodalaydi. Ular nafaqat o’zbek xalqining, balki boshqa millatlarning ham donishmandlik namunasi sanaladi. Ayniqsa, o’zbek va rus maqollarini qiyosiy o’rganish, ikki xalq madaniyati va tafakkuri o’rtasidagi mushtaraklik va farqlarni anglashga xizmat qiladi.*

**Kalit so’zlar:** *maqol, hayotiylik, ritmik, poetik tuzilish, tarjima, qadriyat, urf-odat, rasm-rusum*

**Аннотация:** Фольклор — бесценное сокровище, выражающее накопленный веками опыт, мировоззрение, мечты и взгляды на жизнь народа. Одной из самых популярных и глубоко значимых форм таких творческих примеров являются пословицы. Пословицы лаконично и образно выражают образ мышления народа, его моральные и нормативные ценности, взгляды на общественную жизнь. Они считаются примером мудрости не только для узбекского народа, но и для других народов. В частности, сравнительное изучение узбекских и русских пословиц позволяет понять сходства и различия между культурами и мышлением двух народов.

**Ключевые слова:** пословица, жизненность, ритмика, поэтическая структура, перевод, ценность, традиция, образ-модель

**Abstract:** Folk oral creativity is an invaluable wealth that expresses the experience, worldview, dreams and hopes of the people accumulated over the centuries, their views on life. One of the most popular and deeply meaningful forms of this creative work is proverbs. Proverbs concisely and figuratively express the way of thinking of the people, their moral and normative values, and their views on social life. They are considered a model of wisdom not only of the Uzbek people, but also of other nations. In particular, a comparative study of Uzbek and Russian proverbs serves to understand the commonalities and differences between the cultures and thinking of the two peoples.

**Keywords:** proverb, vitality, rhythmic, poetic structure, translation, value, tradition, image

Hozirgi kunda maqol janrining o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud. Maqollar ko‘p asrlar davomida shakllangan, og‘zaki tarzda avloddan-avlodga o‘tib kelgan, muayyan umumlashma fikrni ifodalovchi, qisqa, lekin mazmunan chuqur bo‘lgan iboralardir. Ular hayotiy tajriba, kuzatuv, va saboqlarga asoslanadi. Maqol ko‘pincha nasihat ohangida bo‘lib, axloqiy normalarni targ‘ib qiladi, ijtimoiy me’yorlarni mustahkamlaydi. Maqollarning asosiy belgilari ham mavjud va ularga quyidagilar kiradi:

- Qisqalik va ixchamlik
- Ritmik tuzilish
- Obrazlilik

- Hayotiylik va xalqona donolik- Ko‘p hollarda qarama-qarshi tushunchalarni taqqoslash orqali fikr bayoni ham bo‘lishi mumkin. O‘zbek xalq maqollarining esa, o‘ziga xos xususiyatlari bo‘ldi. O‘zbek maqollari o‘ziga xos poetik tuzilishga, o‘xshatish va mubolag‘a vositalariga boy. Ular ko‘pincha xalq hayotiga yaqin tasvirlar, dehqonchilik, chorvachilik, oilaviy munosabatlar, axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi.

Masalan:

- “El bilan yegan halvo, harom emas.”
- “Yaxshilik qil, dengizga ot – baliq bilmasa, Xudo bilar.”
- “Oltin – tosh ustida, odam – bosh ustida bilinadi.”

Bu kabi maqollar xalqimizning hamjihatlik, saxovat, halollik kabi fazilatlarni ulug‘lashini ko‘rsatadi.

Endi rus maqollariga umumiylar nazar tashlasak. Rus xalq maqollari ham qadimiy tajribaga asoslangan bo‘lib, ular ham axloqiy-axboriy vazifani bajaradi. Ko‘p hollarda rus maqollarida ham qarama-qarshiliklar, ijtimoiy hayotdagi muammolar, shaxsiy fazilatlar haqida fikr yuritiladi.

#### **MASALAN:**

- “Без труда не вытащишь и рыбку из пруда.”
- “Что посеешь, то и пожнёшь.”
- “Семь раз отмерь – один раз отрежь.”

O‘zbek va rus maqollarining o‘xshash va farqli jihatlari ham mavjud. O‘zbek va rus maqollarining mazmuni va shaklida ko‘p o‘xshashliklar mavjud. Bu ikki xalqning umumiylar insoniy qadriyatlar, mehnatga bo‘lgan munosabat, sabr, adolat, rostgo‘ylik kabi tushunchalarda mushtarakligini ko‘rsatadi.

#### **MASALAN:**

- O‘zbekchada: Mehnat qilgan och qolmas. — Ruschada: Кто трудится, тот не голодает.
- O‘zbekchada: O‘ylab gapir – o‘zingga foyda. — Ruschada: Слово – не воробей, вылетит – не поймаешь.
- O‘zbekchada: Yomon do‘s – kulfat yetkazar. — Ruschada: Скажи мне, кто твой друг, и я скажу, кто ты.

Biroq farqli jihat ham bor. O‘zbek maqollarida ko‘proq diniy, qadriyatli, oilaviy kontekstlar mavjud. Rus maqollarida esa ko‘proq individuallik, ehtiyyotkorlik, sovuqqonlik

kuzatiladi. Maqollarda xalqning qadriyatlari va hayotiy tajribasiga ham asoslangan bo’ladi. Maqollar xalq hayotining har bir sohasini qamrab oladi. Oila, mehnat, do’stlik, vatan, halollik, sabr-toqat, ilm-fan – bularning barchasi maqollarda o‘z ifodasini topgan. Maqollar orqali xalq yosh avlodni tarbiyalaydi, saboq beradi. Ular bir vaqtning o‘zida tarbiyaviy, estetik, ijtimoiy va didaktik funksiyani bajaradi. Bugungi globallashuv davrida ham maqollar o‘z qadrini yo‘qotmagan. Ularni chuqur o‘rganish, boshqa xalqlarning maqollari bilan taqqoslash xalq tafakkurini, madaniyatini yanada teran anglash imkonini beradi. Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, maqollar – xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos donolik xazinasi bo‘lib, ular nafaqat til boyligini, balki xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va axloqiy tushunchalarini aks ettiradi. O‘zbek va rus maqollarini taqqoslab o‘rganish orqali biz ikki xalq tafakkuridagi mushtarakliklar va o‘ziga xosliklarni ko‘ramiz. Bu esa madaniyatlara muloqot, o‘zaro tushunish va hurmatga asos yaratadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Oxunjonovna, B. D. (2025). DAVLAT TILINING ISH YURITISH JARAYONIDAGI AHAMIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO ‘NALISHLARI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 52-57.
2. Oxunjonovna, B. D. (2025). DAVLAT TILIDA ISH YURITISHNI O ‘RGATISH JARAYONIDAGI QIYINCHILIKLAR VA ULARNI HAL ETISH USULLARI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 65-71.
3. Oxunjonovna, B. D. (2025). ELEKTRON TIZIMLARDA DAVLAT TILINING QO ‘LLANILISHI VA UNING RIVOJI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 17-23.
4. Oxunjonovna, B. D. (2025). MAMLAKATNING TURLI HUDUDLARIDA ISH YURITISHDA DAVLAT TILINING O ‘ZIGA XOS QO ‘LLANISHI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 10-16.
5. Oxunjonovna, B. D. (2025). DAVLAT TILIDA ISH YURITISHNI JORIY ETISHNING AMALIY TAJRIBALARI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 3-9.
6. Oxunjonovna, B. D. (2025). RASMIY HUJJATLARNI TUZISHDA DAVLAT TILIDAGI ANIQ TALABLAR VA STANDARTLAR. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 45-51.
7. Oxunjonovna, B. D. (2025). DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH BO ‘YICHA OLIB BORILAYOTGAN SIYOSATNING ISH YURITISH TIZIMIDAGI O ‘RNI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 24-30.
8. Oxunjonovna, B. D. (2025). DAVLAT TILINI ISH YURITISHDA QO ‘LLASHNI TARTIBGA SOLUVCHI QONUN VA ME’YORIY HUJJATLAR. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 31-37.

9. Oxunjonovna, B. D. (2025). DAVLAT TILIDA RASMIY USLUBNING O ‘ZIGA XOSLIGI VA UNING TO ‘G ‘RI QO ‘LLANILISHI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 58-64.
10. Oxunjonovna, B. D. (2025). ISH YURITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA DAVLAT TILINING INTEGRATSIYASI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 38-44.
11. Oxunjonovna, B. D. (2025). BOYOQCHILIK HAMDA KULOLCHILIK ASOSIDA SHAKLLANGAN O ‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING TAHLILI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(2), 98-101.
12. Oxunjonovna, B. D. (2024). O ‘ZBEK TILIDA ISH YURITISHNING YANGI TEXNOLOGIK IMKONIYATLARI. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 1(2), 26-31.
13. Bobojonova, D. (2024). OZBEK XALQI TURMUSHI BILAN BOGLIQ MUSIQACHILIK KASB-HUNAR MAQOLLARI TAHLILI. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(9), 553-564.
14. Oxunjonovna, B. D. (2025). TIL VA JAMIYAT O’ZARO MUNOSABATI.
15. Oxunjonovna, B. D. (2025). AQL VA DONO SO ‘Z. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(2), 33-38.
16. Oxunjonovna, B. D. (2025). VATAN VA YURTPARVARLIK. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(2), 51-56.
17. Oxunjonovna, B. D. (2025). OMAD VA TAQDIR. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(2), 1-6.
18. Oxunjonovna, B. D. (2025). ODOB-AXLOQ. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(2), 7-12.
19. Oxunjonovna, B. D. (2025). SAVDO VA BOYLIK. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(2), 20-25.
20. Oxunjonovna, B. D. (2025). MEHNAT VA TIRIKCHILIK. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(2), 26-32.
21. Oxunjonovna, B. D. (2025). O ‘QISH VA ILM. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(2), 57-62.
22. Oxunjonovna, B. D. (2025). DO ‘STLIK VA BIRODARLIK. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(2), 39-44.
23. Oxunjonovna, B. D. (2025). SABR-TOQAT VA MATONAT. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(2), 13-19.
24. Oxunjonovna, B. D. (2025). ZARGARLIK ASOSIDA SHAKLLANGAN XALQ MAQOLLARI TAHLILI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(1), 245-248.